

**ILK ZARDUSHTIYLIK VA UNING MA’NAVIYATIMIZDAGI QOLDIQLARI**

*O‘zbekiston Respublikasi IIVning Xorazm*

*akademik litseyi o‘qituvchisi*

**Sabirov Sherzod Kadirovich**

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada zardushtiylik dinining paydo bo‘lishi, uning ma’naviyatimizdagi ahamiyati, Avesto kitobining ahamiyati haqida batafsil yoritib berilgan.

**Kalit so‘zlar:** Avesto, Zardushtiylik, Axuramazda, Axriman, Eron, Vishtasp, Parfiya, Valgash. Xorazm, So‘g‘d, Baxtar, Xumbuztepa, S.P.Tolstov, Fozila Sulaymonova.

**KIRISH**

Ilk Zardushtiylik to‘g‘risida tasavvurlarimiz ancha yuliy, to‘liq emas. U haqda ma’lumotni asosan Avestoning Hata(gata)lar qismidan olish mumkin. Avestoning eng qadimgi qismi “Hata”lar (ba’zi olimlar uni “Goh”lar, ba’zilari “Hot”lar deb ataydi, aslida Gata - qo‘shiq misralari degan mazmunni anglatadi) asotirlari ham neolit davri oxirlarida shakllana boshlagan<sup>1</sup>. Chunki unda o‘ziga xos tarzda umumhindiylariy qatlam qoldiqlari uchraydi. Avestoda Axuramazda (Ormuzd, Hormuzd) - ezgulik ibtidosi, bosh xudosi va uning raqibi – Zulmat ruhi – yovuzlik ibtidosi Angra-Maynyu (Axriman) o‘rtasidagi kurash tasvirlangan.

Avesto bizga eng keyingi rasmiylashtirilgan variantda milodiy (340-y.) ma’lum. Bu davrga kelib undagi ba’zi totemistik va ko‘pxudochilik unsurlari boshqacharoq talqin qilinganini, ezgulik xudolari Axuramazda – bosh xudo qavmiga, yovuzlik xudolari esa Angra-Maynyu qo‘shiniga kiritilganini ko‘ramiz. Natijada zardushtiylik e’tiqod va axloq masalalarida dualistik din – ikki ibtidoga asoslangan dinga aylangan. Politeistik (ko‘pxudochilik) dinidan dualistik dinga aylanish zardushtiylik ta’limoti tadrijiy rivojlanishining (evolyutsiyasining) obyektiv tendensiyasi bo‘lgan. Avestoning yozma tartib berilgan varianti ushbu tendensiyani o‘zida aks ettirgan.

Avesto Zardushtga vahiy qilingan kitob hisoblanadi. Pahlaviy (yoki pars) solnomalari an’anasiga ko‘ra, Zardusht Iskandardan 258 yil avval “yashagan” deyiladi. Ammo olimlar Avestoning eng qadimiy qismi Hatalarni tahlil qilib, uning tili eramizgacha 12-10 asr ilgargi davrga oidligini isbotlaganlar. Zardusht tarixiy shaxsmi yoki yo‘qmi, uning yashagan davri haqidagi masala fanda uzil-kesil hal qilingan emas. Lekin u, agar haqiqatan tarixiy shaxs bo‘lsa, o‘rtaosiyolik yoki Eronga nisbatan Sharqda joylashgan mamlakatdan (hozirgi shimoliy Afg‘oniston) chiqqan, deb hisoblanadi. Go‘yoki, u o‘z yurtida quvg‘inga uchragan (pahlaviy manbalariga ko‘ra) va sharqiy eroniylar shohi Vishtasp homiyligiga o‘tgan.

<sup>1</sup> Жўраев М. Умумтурк асотирлари: Илк зардуштийлик – «Авесто»нинг энг қадимги қисми «Хата»лар асотирлари. Ўқув қўлланма. – Тошкент: «Мумтоз сўз», 2014. – 128 б.

Shundan so‘ng zardushtiylik Eronda tarqalgan. Zardusht 77 yoshida Balxda turlarning hujumi paytida halok bo‘lgan deyiladi.

**Asosiy qism:** Zardushtiylikning asl vatani haqidagi masala to‘g‘risida xilma-xil fikrlar mavjud. Ko‘pchilik olimlar u O‘rta Osiyoda, xususan Xorazmda, So‘g‘dda yoki Baxtarda shakllanganligini ta’kidlaydilar. Xorazmda Amudaryo bo‘yida joylashgan Xumbuztepada so‘ngi yillarda olib borilgan qazimalar dalolat bermoqdaki, vohada shaharlashgan madaniyat eramizgacha VII asr oxirlarida vujudga kela boshlagan. Bu Eronda ahmoniyalar sulolasi shakllanishidan oldingi davrdir. Xumbuztepada ochilgan yodgorlikning zardushtiylikka mansubligi aniq isbotlangan. Ibodatxona qoldig‘i milloddan avvalgi V asrga tegishli. U zardushtiylikning hozirgacha fanga ma’lum eng qadimgi ibodatxonasidir. Bu dalil zardushtiylik beshigi Xorazm bo‘lgani ehtimolini yanada oshiradi.

Hozirgi zamon fanining Hatalar yaratilgan davr pahlaviy manbalarida ko‘rsatilgan davrga nisbatan taxminan 500 yil ilgariroq ekanligi to‘g‘risidagi xulosasi pahlaviy manbalaridagi nafaqat xronologik (vaqt, davr) ma’lumotlarni, shuningdek, boshqa ba’zi bir ma’lumotlarni ham ancha shubha ostiga qo‘yadi.

**Avestoga qayta tartib berilishi.** Avesto, go‘yoki, ilk bor Zardushtning kuyovi va shogirdi Jamasp tomonidan yozib olingan. Undan sigir terilariga ko‘chirilgan ikki nusxasi shoh xazinasida saqlangan va Iskandar tomonidan, yuqorida aytilganidek, kuydirilgan. Keyinchalik Parfiya shohi Valgash (eramizning 50-yillari) va sosoniylar sulolasi asoschisi Birinchi Ardasher Papakan (eramizning 224-241-yillari) Avestoning omon qolgan parchalarini yig‘ishga buyruq berganlar. Faqat Ikkinchi Shopur (309-379 y.) davrida zardushtiy ruhoniylar, xususan kohin Mahraspand o‘g‘li Aturpat (340 y.)

Avesto matnlarini va ularning tartibini tasdiqlagan, zardushtiylik uzil-kesil Eronning davlat diniga aylangan. Shundan so‘ng Eronda boshqa dinlarni ta’qib qilish boshlangan. Avestoga ikkinchi marta tartib berilgach, sosoniylar mamlakatida u hamma uchun majburiy diniy-falsafiy, axloqiy, huquqiy va ibodat hujjatiga, turmush tarzining qat’iy yo‘rig‘iga aylangan. Albatta, Avestoning rasmiy tasdiqlangan tarkibiga kirmay qolgan matnlarga, talab va me’yorlarga xayrixohlar o‘sha paytlar kam emas edi. Ayniqsa, Eronga bo‘ysunmagan mustaqil mamlakatlarda, yoki Erondan mustaqil bo‘lishiga intilgan mamlakatlarda, xususan Xorazm, So‘g‘d va Baxtarda.

“Eroniylashtirilgan” Avestoda turkiy xalqlarning ulug‘ qahramoni, afsonaviy dohiysi, xoni Alp Er To‘ng‘a obrazi (Avestoda Frangrasyan, Firdavsiy “Shohnoma”sida Afrosiyob deb atalgan) o‘ta salbiy tasvirlangan. Chunki uning qo‘shinlari eronliklarga qaqshqtgich zarbalar bergan, urushda yenggan Ahmoniyalar va sosoniylar davrida Eron O‘rta Osiyoni bir necha marta bosib olgan va o‘z tasarrufiga olishga intilgan, ko‘plab harbiy bosqinchilik yurishlari uyushtirgan. Tabiiyki, ajdodlarimiz asrlar davomida o‘z ozodliklari, mustaqilliklari uchun kurash olib borgan, imkon tug‘ilgan paytda o‘zlari ham harbiy yurishlar qilgan. Ayrim harbiy yurishlar ancha muvaffaqiyatli kechgan, ulkan g‘alabalarga olib kelgan. Shunday yurishlarga boshchilik qilgan xonlarini, eronliklardan farqli, o‘z dostonlari va qo‘shiqlarida

20-Avgust, 2026-yil

ulug‘langan. Kelgusi avlodlar ongiga ruhiy madad, g‘urur, or-nomus, donishmandlik, qahramonlik, elga fidoyilik namunasi sifatida uning obrazini singdirishiga harakat qilgan.

O‘sha davrlarning ijtimoiy hayotida, mintaqalar munosabatida harbiy yurishlar sezilarli o‘rin egallagan. Har bir tomon o‘zini haq hisoblagan. Buni mafkuraviy vositalar orqali, jumladan, asotirlar, dostonlar, hatto diniy kitoblar va shu kabilar vositasida omma ongiga yetkazishga uringan. “Eroniylashtirilgan” Avestoda biz shu hodisaga duch kelamiz. Aksincha, turkiy xalqlar rivoyatlari va afsonalarida, marsiyalarida Alp Er To‘nga dono, mard va adolatli xon sifatida, uning dushmanlari esa qo‘rqoq, makkor va xiyonatkor, aldanchi sifatida tasvirlangan. Faraz qilish mumkinki, bizning mintaqamizda “eroniylashtirilgan”, rasmiy tus berilgan Avesto unchalik mashhur bo‘lmagan va keng tarqalmagan. Lekin har holda Avestoning og‘zaki va norasmiy variantlari eramizning dastlabki asrlarida ham ma’naviy hayotimizda ancha iz qoldirgan. Bu davrda (IV asr) ajdodlarimiz ma’naviyati rivojlanishining plyuralistik qarashlar negizidagi ikkinchi bosqichi o‘zining gullab-yashnagan pallasiga kira boshlagan edi. Hatto Kanishka davlatida rasmiy maqom olgan buddaviylikning ta’siri bizning mintaqamizning ilgari tarqalgan joylarida (hozirgi Surxondaryo va Farg‘ona vodiysi) pasaya boshlagan edi.

Avesto quyidagi mundarijaga ega:

1. Hata(Gata)lar.

2. Yasna, Visparat (barcha kuzzotlar). Yasna – ibodat degan mazmunni bildiradi. Odatda, Yasna tarkibiga Hatalar, Xomyasht – Xaoma ruhining Zardushtga kelishi to‘g‘risida ma’lumot va Visparat kiritiladi.

3. Yashtlar.

4. Videvdat (devlarga qarshi qonun).

5. Kichik matnlar yoki forsiy tilda Xorda Avesto - Kichik Avesto.

Hatalar 248 misradan iborat bo‘lib, Yasnaning 17 bobini tashkil etadi. Kichik Avestoda Zardusht yangi dinni joriy qilishda qadimgi eroniy xudolar - Ardvisura Anaxita, Xaoma, Mitra, Beretragnadan ko‘mak so‘raydi. Lekin Hatalarda bunday xudolar mutlaqo esga olinmagan. (Ta’kidlash joizki, zardushtiylik bo‘yicha yirik mutaxassis X.Nyuberg Ardvisura Anaxita obrazi dastlab Sirdaryoning o‘rta oqimida yashagan saklar orasida shakllangan, deb hisoblaydi. Dastlab u daryo ma’budasi bo‘lgan, keyinchalik yirik xudolardan biriga aylangan<sup>2</sup>). Hatalarda eroniy xudolar tilga olinmasligi Avesto qadimiy qismining asl vatani

---

<sup>2</sup> “Anaxita” so‘zini 2014 yilda Abdusattor Jumanazar “Sumalak” nomli maqolasida (O‘zAS, 28-mart, 13 son) turkiycha – Anaqut (Ona-qut) deb talqin qiladi. Ushbu talqin X.Nyuberg fikriga zid kelmaydi. Lekin Avestodagi eroniy xudolar va ma’budalar orasiga turkiy Xudo qanday qilib kirib qolgan degan savol tug‘iladi. Bunday holat faqat o‘sha xalqlarning aralashib, duragaylashib ketishi natijasida yuz berishi mumkin. Bundan tashqari, o‘sha davrda turkiy xalqlarda hosildorlik, qut-baraka ma’budasi Umay-xotun hisoblangan. Balki, Ana-qut Umay-xotunning ikkinchi nomidir. Masala yangi tadqiqotlarni talab qiladi. Ikkinchi tomondan , qadimgi davr uchun qo‘shni xalqlar ma’budlari aralashib, bir-biri tomonidan qabul qilinishi, mahalliy ma’budalardan ayrimlari yiriklashib birinchi darajali umumiy ma’budalarga aylanishi fanga ma’lum. Balki, Anaxita, haqiqatdan, Anaqutdir.

20-Avgust, 2026-yil

Eron emasligini ko'rsatadi. Lekin yuqorida keltirilgan dalil Avesto eramiz boshlarida Eronda qayta to'planganini, bu davrga kelib u ancha “eroniylashtirilganini”, ayniqsa Kichik Avesto eronlik zardushtiy qohinlar ta'sirida va tahririda yaratilganini bildiradi.

Avestoda to'fon, olamni suv bosgani to'g'risidagi asotirlarga o'xshash ma'lumot bor. Axuramazda Yimani (Jima; “Shohnoma”da va fors manbalarida u Jamshidga qiyos qilinadi) bu dunyoning yovuz odamlari ustiga qish kelib, bulutlardan qor yog'ishi, mollarning uchdan biri omon qolishi, hozirgi yaylovlarni suv bosishi haqida ogohlantirgan. So'ng Axuramazda Yimaga falokatdan omon qolish maqsadida mayd mol va qoramol, odamlar, itlar va qushlar, olov-otash urug'i uchun yer ostida Vara degan shahar qurishni buyuradi. Bu ajdodlarimiz xotirasida muz davrining oxirida tabiatda yuz bergan o'zgarishlar haqida saqlanib qolgan tasavvurlar qoldiqlaridir.

Bizning yuqoridagi misolni keltirishimizdan maqsad muz davrini eslatish emas, balki S.P.Tolstov Xorazmda Avestoda tasvirlangan Varaga o'xshash joy qoldig'ini qazilmalar paytida topganiga, bu ham ilk zardushtiylik qaerda shakllanganiga bir qo'shimcha dalil bo'lishi mumkinligiga diqqatni qaratishdir.

**Xulosa.** Faraz qilish mumkinki, Avesto asotirlarining bir qismi mehnatning birinchi tarixiy taqsimotidan - chorvachilik va dehqonchilikning bir-biridan ajralmasidan avval yoki ilk bor chorvadorlar orasida shakllangan. Chunki unda tasvirlangan qurbonlik marosimlari, ba'zi bir urflar, geografik joylar va iqlim, qadimgi turmush tarzining ko'plab unsurlari qadimgi chorvadorlar, cho'lda yashovchi xalqlarga oidligini saqlab qolgan. Shu bois I.Braginskiy Avesto ko'proq Markaziy Osiyo hududiy toponimikasi (joy atamalari) va qadimgi xalqi turmush tarzining xususiyatlarini aks ettirishini alohida ta'kidlaydi.

Bizgacha yetib kelgan Avesto asotirlaridan namuna keltirib o'tirmaymiz. Ammo ma'naviyat bilan bog'liq bir narsani ta'kidlamoqchi edik. Zardusht ta'limotida, ***“ezgulik va yovuzlik o'rtasidagi kurash oqibatida qaror topadigan olam tartibi, to'g'ri yo'l odamlarning erkin tanlashiga, ongli ravishda ezgulik tomonida turib faol kurashishiga bog'liq.”***<sup>3</sup> degan g'oya olg'a surilgan. Bu zardushtiylikning uch ming yil osha bizgacha yetib kelgan, hozir ham, bundan keyin ham ahamiyatini yo'qotmaydigan buyuk umuminsoniy qadriyatga aylangan g'oyasidir. Bu g'oya umuminsoniy ma'naviyatning tamal toshlaridan biridir.

Avesto asotirlarining ijtimoiy-tarixiy voqealarga, jumladan afsonaviy shohlarga, hukmdorlarga aloqador qismi buyuk Firdavsiyning “Shohnoma” asarida qayta ishlangan va shoir yashagan davr ijtimoiy-siyosiy va mafkuraviy talablariga, eronliklar manfaatlariga ancha-muncha moslashtirilgan shaklda bayon qilingan.

Zardushtiylikning diniy-falsafiy tasavvurlari va qarashlari ahmoniylar davrida Kichik Osiyoda yashagan xalqlarning, jumladan yunonlarning diniy-falsafiy qarashlari va madaniyatiga ta'sir ko'rsatgan. Bu haqda Fozila Sulaymonovanning “Sharq va G'apb” asarida qiziqarli dalillar keltirilgan. “Xususan, qadimgi yunon ilm-fani va madaniyatining beshigi

---

<sup>3</sup> Erkayev A. Ma'naviyatshunoslik. Monografiya. 1-kitob. T.:Ma'naviyat, 2018-386 bet.

20-Avgust, 2026-yil

bo‘lmish Ioniya, uning poytaxti Miletida ilm-fan, falsafa shakllanishiga va rivojlanishiga, u orqali butun Yunon va Rim madaniyatiga ilk zardushtiylik o‘z hissasini qo‘shgan<sup>4</sup>.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Жўраев М. Умумтурк асотирлари: Илк зардуштийлик – «Авесто»нинг энг қадимги қисми «Ҳата»лар асотирлари. Ўқув қўлланма. – Тошкент: «Мумтоз сўз», 2014. – Б.128.
2. Abdusattor Jumanazar. “Sumalak” nomli maqolasi. (O‘zAS, 28-mart, 13 son) .
3. Erkayev A. Ma’naviyatshunoslik. Monografiya. 1-kitob. T.:Ma’naviyat, 2018. – B. 386.
4. F. Sulaymonova. Sharq va G‘apb. T., “O‘zbekiston”, 1997. – B. 22-39.



<sup>4</sup> F. Sulaymonova. Sharq va G‘apb. T., “O‘zbekiston”, 1997 yil, 22-39-betlar.